



ABDULLA ORIPOV SHE`RLARIDA BAHOR NASHIDASI

ERGASHEVA FERUZA IKROM QIZI

Andijon viloyati Baliqchi tumani 38-umumta'lim
maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning she'rlarida aks etgan bahor madhi, tabiat tasviri, shoirning bahoriy nashidani qay yo'sinda tasvirlashini yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, nashida, shoir, she'r, bahor, madhiya, qo'shiq, tashbeh, tashxis, "Sen bahorni sog'inmadingmi?", "Bahor senikidir", "Bahor shamoli".

Yana bahor keldi. Yana olamda

Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot.

Men seni qutlayman shu ulug` damda,

Ulug` yelkadoshim, muzaffar hayot!

Abdulla Oripov, "Tanlangan asarlar" 1-jildidan

Abdulla Oripov – zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan, qalami o'tkir shoir, tarjimon, O'zbekiston Qahramoni... Uning ijodidan bahramand bo'lmagan, she'rlarini yoddan bilmagan, asarlaridan zavq tuymagan o'zbek kitobxoni bo'lmasa kerak. O'z nazmida qalbdagi harorat, fikran teranlik, yurakdagi orziqishlarni to'laligicha ifodalab



bera olgan shoirning sheʼrlarida bahoriy kayfiyat sezilib turadi. Jonkuyar adib Oʻtkir Hoshimov: “Ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli boʻlishi kerak “, – deya taʼkidlab oʻtgan edi.¹ Darhaqiqat, Abdulla Oripov bor ilhomni oʻz qishlogʻi Nekoʻzning yashnab turgan qir-adirlaridan, sof, musaffo togʻ havosidan, qishloqdoshlarining sodda va pokiza yuraklaridan topdi-yu, qogʻozga toʻkdi.

Shoir bahor faslini sevdi, uni madh etdi, nashida qildi. Nashida arab tilidan olingan soʻz boʻlib, “qoʻshiq”, “madhiya” kabi maʼnolarni anglatadi va adabiyotshunoslikda biror mavzuga bagʻishlab yozilgan tantanali sheʼr hisoblanadi. Adib ijodiga umumiy jihatdan nazar solar ekanmiz, asosan, bahor mavsumi alqoviga bagʻishlab yozilgan satrlar miqdori koʻpligiga guvoh boʻlamiz. Shoirning “Bahor”, “Bahor shamoli”, “Sen bahorni sogʻinmadingmi”, “Bahor senikidir”, “Bahor nashidasi” kabi sheʼrlarida umr bahoriga qiyos beriladi. Buning yaqqol isbotini quyidagi baytlarda koʻrishimiz mumkin:

Uygʻonguvchi bogʻlarni kezdim,

Topay dedim qirdan izingni.

Yonogʻingdan rang olgan dedim –

Lolazorga burdim yuzimni

Uchratmadim ammo oʻzingni,

– Sen bahorni sogʻinmadingmi?²

Shoir bahorga talpingan qalblarni, oshiqning yorni izlab, bogʻlarda sarosar kezishi, maʼshuqaning yonogʻini loladan rang olgan deya, lolazordan axtarishi orqali koʻrsatib beradi va koʻngillarga murojaat qilib, sen bahorni sogʻinmadingmi deb xitob qiladi. Bu

¹ Oʻtkir Hoshimov “Mashaqqatli safar” – saviya.uz.com

² Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” 1-jild – Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, Toshkent – 2000: 38b, 120b, 272b. Keltirilgan sheʼrlarning barchasi ushbu toʻplamdan olingan.



o`rinda nafaqat go`zal tasvir, balki badiiy san`at vositalaridan biri tashxisdan (uyg`onguvchi bog`lar) ham o`rinli tarzda foydalanilgan. Bundan tashqari, adibning bir qancha she`rlari bahor nashidasini o`zida aks ettiradi, uyg`onish faslini madh etadi:

Kengliklar bag`riga uraman o`zni,

Ko`zimga ko`ringay dilbar diyorim.

Go`dak nafasidek yupatar yuzni,

Qish bo`yi intizor kutgan bahorim.

Yuqoridagi misralarda qish bo`yi intizor, mushtoq bo`lib bahorni kutgan, sog`inchidan sevinib o`zini kengliklar bag`riga urgan yurak egasi gavlanadi. Axir, xalqimizda “Qishdan chiqish ham bir davlat” degan maqol bejiz aytilmagan. Bu hissiyotlar tashbeh san`ati vositasida (go`dak nafasidek yupatar yuzni), (dilbar diyorim) yanada yaxshiroq ifodalangan. She`rning davomini o`qir ekanmiz, bahor inson umriga mengzaladi, uning shamol kabi yelib, shitob bilan o`tib borishi tasvirlanadi. Shoir shu orqali vaqt qadri, hayotning g`animatligini uni besamar o`tkazmaslik zarurligini o`quvchiga eslatib o`tadi.

Bahor-ku o`tadi shamoldek shitob,

Mayli, o`tajak u va o`tar bo`lsin.

Azizim, umringda havo bo`lsin sof,

Umring shamollari muattar bo`lsin.

Abdulla Oripovning qizi Yulduzga atab yozgan “Bahor senikidir” she`rida esa, otaning jajji qiziga bo`lgan yuksak mehri o`z aksini topgan. Mana qizaloq adirlarda sochlariga bargaklar taqib, lolazorlarda entikib yugurayotir, buni ko`rgan otaning ko`zlarida quvonch shu`lari o`ynamoqda. Butun tabiat, tog`lar, lolar ularga jo`r bo`lmoqda go`yo...



Bahor senikidir,

Tolma yelishdan.

Yugur, sochlaringga bargaklar taqib.

Men esa quvonay qahraton qishdan

Omon chiqa olgan ildizga boqib.

Tabiat shoirga ilhom beradi, uni ijodga undaydi Umuman olganda, shoirning sheʼrlarida insoniy xislatlar tabiat hodisalari, mavsumiy oʻzgarishlarga qiyoslangan holda yoritiladi. Bu esa kitobxonni oʻyga toldiradi, falsafiy mushohada yuritishiga turtki boʻladi. Abdulla Oripov sheʼriyatining oʻziga xos qirralaridan birini ham shunda desak, adashmagan boʻlamiz. Yana bir bahor kuychisi, oʻzbek sheʼriyatining yirik vakili Abdulla Oripovning dil tortar sheʼrlari, asarlari biz kitobxonlar yodida mudom qolajak!

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” 1-jild – Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, Toshkent – 2000;
2. Abdulla Oripov “Koʻrgan-bilganlarim”(avtobiografik maqola) – saviya.uz;
3. Safo Matchon, Sharafjon Sariyev “Adabiyot” – Sharq nashriyoti, Toshkent – 2012;
4. Saviya.uz.com sayti